

ISLOHOTLAR YUTUQLARINING AN'ANAVIY VA VIRTUAL TARG'IBOTINING DOLZARB MASALALARI.

Shaxarova Eliza Faxriddin qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
pedagogika nazariyasi va tarixi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar yutuqlarini an'anaviy va virtual vositalar orqali yoritishning dolzarb masalalariga ya'ni islohotlarni targ'ib qilishda media va raqamli texnologiyalarning rolini oshirishga qaratilgan. Tadqiqot ishi davomida mamlakatning iqtisodiy o'sish, raqamli transformatsiya, ijtimoiy va infratuzilma sohalaridagi muvaffaqiyatlarini tahlil etildi. Shuningdek, an'anaviy media va virtual platformalar o'rtasidagi farqlar, samaradorlik, axborot ishonchliligi, raqamli tafovut, senzura va dezinformatsiya muammolari ko'rib chiqildi. Mahalliy va xalqaro manbalarga asoslangan holda yuqoridagi masalalarni yechish yo'llari taklif etildi.

Kalit so'zlar: Islohotlar yutuqlari, an'anaviy targ'ibot, virtual targ'ibot, raqamli transformatsiya, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, "O'zbekiston — 2030", media samaradorligi, raqamli tafovut, axborot erkinligi, O'zbekiston islohotlari.

Kirish. Bilamizki hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirib, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda sezilarli yutuqlarga erishib kelmoqda. Ayniqsa, 2016-yildan beri Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan islohotlar mamlakatni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu islohotlar iqtisodiy liberalizatsiya, investitsiyalar jalb qilish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, raqamli transformatsiyani o'z ichiga oladi. Masalan, Jahon

bankining “Doing Business” reytingida O‘zbekiston 2018-yildan beri 24 pog‘ona yuqoriga ko‘tarilib, 63-o‘rinni egalladi, bu mamlakatning raqamli hukumat rivojlanish indeksida (EGDI) “Juda yuqori” toifasiga kirganini ko‘rsatadi [1].

Islohotlar yutuqlarini jamoatchilikka yetkazishda targ‘ibotning roli beqiyosdir. An’anaviy targ‘ibot vositalari ya’ni televideniye, radio, gazeta orqali aholiga ma’lumot berish an’anasi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, zamonaviy dunyoda virtual (raqamli) platformalar – ijtimoiy tarmoqlar, onlayn saytlar va elektron hukumat tizimlari muhim o‘rin egallamoqda. Barchamizga ma’lumki, hozirda hayotimizni raqamli platformalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Bu tizim butun hayotimizga kirib keldi. U hayotimizga kirib kelishi orqali bizga har sohada juda ko‘plab qulayliklarni ham olib keldi. Shu sababli ham virtual platformalarga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Fikrimizning isboti sifatida ko‘rishimiz mumkinki, 2025-yil oxiriga kelib internet foydalanuvchilari soni 33,1 millionga yetib, penetratsiya darajasi 89% ni tashkil etdi [2]. Biroq, bu jarayonda bir qator dolzarb masalalar ham mavjud: axborotning ishonchliligi, raqamli bo‘linish, senzura va targ‘ibotning samaradorligi kabilar. To‘g‘ri bu virtual dunyo hayotimizga ko‘plab qulayliklarni olib keldi lekin ulardan foydalanishda albatta ehtiyot choralari ko‘rishimiz zarur. Biz olayotgan manbalarning ishonchli va havfsizlik darajasi doimobirinchi o‘rinda va e’tibor markazimizda bo‘lishi muhim. Ushbu tadqiqot ishida islohotlar yutuqlarini an’anaviy va virtual targ‘ibot orqali yoritishning hozirgi holatini tahlil qilindi, muammolarni muhokama etildi va yechim va takliflar berib o‘tildi. Maqolaning maqsadi media va raqamli texnologiyalarning islohotlarni targ‘ib qilishdagi rolini oshirishga hissa qo‘shishdan iborat.

Asosiy qism. Barchamizga ma’lumki, O‘zbekistonning islohotlari 2017–2021-yillarda “Beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” va 2022–2026-yillarda “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asosida amalga oshirilmoqda. Hozirgi bosqichda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi asosiy yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilmoqda [4]. Bu islohotlar iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va

xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Raqamli sohada “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu strategiya orqali internet tezligini oshirish va mobil qamrovni universal darajaga yetkazish rejalashtirilgan. 2025-yil oxirida internet foydalanuvchilari 33,1 million (penetratsiya 89%) [2]. my.gov.uz platformasi 2025-yilda 39,7 million ariza qabul qilib, 32,9 millionini ko‘rib chiqdi [7]. Hozirda xatto xalqaro tashkilotlar ham O‘zbekistonning raqamli transformatsiyadagi yutuqlarini e‘tirof etmoqda. Biroq, bu yutuqlarni jamoatchilikka yetkazishda targ‘ibot muhim o‘rin tutadi. An‘anaviy va virtual vositalar orqali yoritish aholining islohotlarga ishonchini oshiradi, lekin axborotning bir tomonlama berilishi va raqamli resurslarga tengsiz kirish jarayonni murakkablashtirmoqda. An‘anaviy targ‘ibot bu televideniye, radio, gazetalarni o‘z ichiga oladi. Bularga bo‘lgan talab yaqin 10 yillar oldin ham anchagina yuqori edi. Hozirda ular o‘rnini virtual platformalar egallab bormoqda. Lekin an‘anaviy targ‘ibot va ommaviy tadbirlar O‘zbekistonda islohotlar yutuqlarini yoritishning asosiy vositasi bo‘lib qolmoqda. Misol uchun ayta olamizki, Milliy telekanallar orqali “Yangi O‘zbekiston” dasturlari islohotlarni targ‘ib qilib boradi. “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” qo‘llanmasida ta’kidlanganidek, an‘anaviy vositalar orqali uchrashuvlar va ko‘rsatuvlar samaraliroqdir [9]. Xalqaro manbalarga ko‘ra, jahon banki hisobotlarida an‘anaviy media rivojlanayotgan mamlakatlarda islohotlarni targ‘ib qilishda muhim ekanligi ta’kidlanadi [10]. Biroq, dolzarb masalalar ham albatta mavjud ya’ni axborotning bir tomonlama berilishi, senzura va ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi kamligi. RSF(Reporters Without Borders) 2025 indeksida O‘zbekiston 148-o‘rin (35,24 ball) ni egallagan[3]. Bu islohotlar haqidagi haqiqiy bahoni pasaytiradi va an‘anaviy targ‘ibotni zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda virtual targ‘ibot – ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram va boshqalar), onlayn platformalar va elektron hukumat tizimlari – islohotlar yutuqlarini yoritishda tez rivojlanmoqda. my.gov.uz platformasining o‘zi 300 dan ortiq xizmatlarni onlayn taqdim etmoqda [7]. GSMA hisobotida O‘zbekistonning raqamli siyosati Markaziy Osiyosda yetakchi ekanligi ta’kidlangan: 2024-yilda yangi Telekommunikatsiya qonuni qabul qilindi [11]. Biroq, virtual targ‘ibotda internet tezligi

pastligi (global reytingda oʻrtacha holat), raqamli boʻlinish va yolgʻon axborotlar tarqalishi kabi bir qancha muammolar ham mavjud. Hozirda targʻibotdagi asosiy muammo – axborotning ishonchliligi va samaradorligidir. Anʻanaviy mediada senzura kuchli [3], virtual platformalarda esa yolgʻon axborotlar va kibertahdidlar koʻplab uchramoqda. Va bular bugunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda.. Raqamli boʻlinish deganda biz qishloq va shahar oʻrtasidagi farqlardagi muammolarni tushunamiz. Aholining internetdan foydalanish koʻsatkichi yuqori boʻlsa-da, tezlik va qamrov past. Bundan tashqari, targʻibotda gender va yoshlar masalalari kam yoritiladi. Quyida bu muammolar yuzasidan taklif va maslahatlar berib oʻtamiz. Bugungi hayotimizda mavjuda va bizga muammo tugʻdirib kelaayotgan dolzarb masalalarni yechish uchun:

1. Anʻanaviy va virtual targʻibotni birlashtirish,
2. Milliy media va ijtimoiy tarmoqlarni integratsiya qilish,
3. Bloggerlar va jurnalistlarni qoʻllab-quvvatlash,
4. “Milliy gʻoya targʻiboti texnologiyalari”ga AI va VR texnologiyalarini qoʻshish,
5. Axborot erkinligini taʼminlash uchun qonunlarni takomillashtirish va raqamli infratuzilmani kengaytirish zarur.

Xalqaro tajribalarga suyanadigan boʻlsak (GSMA, OECD) regulyator mustaqilligini oshirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirishni tavsiya etadi [11].

Xulosa. Oʻzbekistonning islohotlar yutuqlari – 2025-yilda 7,6% ga yaqin YaIM oʻsishi, 89% internet penetratsiyasi, my.gov.uz orqali millionlab xizmatlar va “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining jadal ijrosi – anʻanaviy va virtual targʻibot orqali samarali yoritilmoqda [5:2:7]. Bu yutuqlar nafaqat statistik raqamlar, balki millionlab fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq, dolzarb masalalar – senzura (RSF indeksi 148-oʻrin) [3], raqamli tafovut, axborot ishonchliligi va dezinformatsiya – bu jarayonni murakkablashishiga sabab boʻlib kelmoqda. Ushbu muammolarni yechish uchun anʻanaviy media va virtual platformalarni organik

birlashtirish, ma'lumotlarni tekshirish mexanizmlarini kuchaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish zarur. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va xalqaro hamkorliklar (IMF, Jahon banki, GSMA) yordamida bu yo'nalishda katta imkoniyatlar mavjud [6:11]. Natijada, targ'ibot nafaqat islohotlar haqida ma'lumot yetkazadi, balki aholining ishonchini mustahkamlaydi, fuqarolik jamiyatini rivojlantiradi va mamlakatning global maydondagi obro'sini oshiradi. Kelgusida media mustaqilligini kuchaytirish, innovatsion texnologiyalardan (AI, VR, interaktiv kontent) faol foydalanish va ochiq muloqotni targ'ibotning asosiy tamoyiliga aylantirish lozim. Bu yondashuv O'zbekistonni nafaqat raqamli va iqtisodiy yetakchiga, balki axborot jihatidan shaffof va ishonchli jamiyatga aylantiradi. Islohotlarning haqiqiy muvaffaqiyati – ularning har bir fuqaro tomonidan to'g'ri tushunilishi va qo'llab-quvvatlanishidadir.

Foydalanilgan manbalar:

1. **DataReportal.** Digital 2026: Uzbekistan. — <https://datareportal.com/reports/digital-2026-uzbekistan> (2026-yilgi raqamli penetratsiya va internet statistikasi).
2. **International Monetary Fund (IMF).** Republic of Uzbekistan: Staff Concludes Visit (2025). — <https://www.imf.org/en/news/articles/2025/11/26/pr-25397-uzbekistan-imf-staff-concludes-visit> (iqtisodiy o'sish prognozlari).
3. **Jahon banki (World Bank).** Uzbekistan Economic Update (2025). — <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/...> (raqamli transformatsiya va iqtisodiy ko'rsatkichlar).
4. **Lex.uz.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida (2020). — <https://lex.uz/docs/-5030957> (strategiya matni va 1-ilova).

5. **Lex.uz.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi (keyingi tahrirlar). — <https://lex.uz/docs/-6600413> (umumiy strategik hujjat).
6. **my.gov.uz.** Rasmiy statistika (2025–2026 yillar). — <https://my.gov.uz/uz/statistics> (elektron xizmatlar va ariza statistikasi).
7. **Otajonov Sh.X.** O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni amalga oshirishning yo‘nalishlari tadqiqi. — Urganch davlat universiteti ilmiy materiali. — <https://files01.core.ac.uk/download/555489074.pdf> (raqamli iqtisodiyot va transformatsiya).
8. **Reporters Without Borders (RSF).** World Press Freedom Index 2025: Uzbekistan. — <https://rsf.org/en/country/uzbekistan> (148-o‘rin, 35.24 ball).
9. **ResearchGate.** Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va ularning ahamiyati (2026). https://www.researchgate.net/publication/378111346_RAQAMLI_TRANSFORMATSIYA_KONSEPSIYALARI_VA_ULARNING_AHAMIYATI (raqamlashtirish va transformatsiya tahlili).
10. **UNDP.** O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti (2025). — https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_uz.pdf (raqamli iqtisodiyot va kiberxavfsizlik).